


19-dars. Ko'p xonali sonlarni ayirish



1. Sonlarning **grafik modelidan** foydalanib, ularning ayirmasini toping.



Ko'p xonali sonlarni ayirish

Ko'p xonali sonlarni ayirish ham uch xonali sonlarni ayirish kabi bajariladi, ya'ni qat'iy ravishda **xonalar xonalarning ostiga yoziladi**.

				10	
-	7	8	7	3	
	4	3	5	6	
	3	5	1	7	

				10	10
-	9	7	2	8	
	1	2	6	9	
	8	4	5	9	

				9	9
-	8	0	0	0	
	3	9	1	2	
	4	0	8	8	



2. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

$$934 - 497$$

$$809 - 178$$

$$4\,132 - 292$$

$$8\,035 - 967$$

$$9\,232 - 5\,118$$

$$7\,200 - 6\,982$$



3. Yoqilg'i quyish shoxobchasiga 2000 litr yoqilg'i keltirildi. Birinchi kun yoqilg'ining 345 litri, ikkinchi kun esa qolgan qismi ishlatildi. Qaysi kun ko'p va necha litr ko'p yoqilg'i ishlatilgan?



4. Ifodalarning qiymatini amallarning **to'g'ri tartibiga** rioya qilgan holda hisoblang. Olingan qiymatlarga mos harflarni amallarning bajarilish tartibiga ko'ra joylashtiring va nomi elektr bilan bog'liq bo'lgan toshning nomini aniqlang.

$$78 + 7 \cdot (901 - 893) - (681 - 645) : 4 + 416$$



O 541

R 9

A 36

A 134

H 56

B 125

K 8



5. Tenglamalarni yeching va javoblarni tekshiring.

$$x + 3900 = 8520$$

$$5000 - y = 2360$$



6. Jadvaldan foydalanib, savollarga javob bering.

- a) Guliston aholisi 1991-yildan 2019-yilgacha qanchaga ortgan?
- b) Shu davr oralig'ida necha yil o'tgan?

Guliston aholisi (kishi)	
1970-yil	31 000
1991-yil	54 000
2010-yil	77 300
2019-yil	89 000



7. Ifodalarni yozing va ularning qiymatini hisoblang.

- a) 1224 va 2178 sonlari yig'indisini 1335 taga kamaytirish.
- b) 5620 va 797 sonlari ayirmasini 2670 taga orttirish.
- d) 3 va 8 sonlari ko'paytmasini 4 marta kamaytirish.
- e) 45 va 5 sonlari bo'linmasini 7 marta orttirish.



8. Akmal 7, 8, 9 raqamlaridan foydalanib, barcha mumkin bo'lgan uch xonali sonlarni tuzdi va bu sonlarda birorta raqam takrorlanmadi. Shu barcha sonlarning yig'indisi nechaga teng?



9. Jasur sayr vaqtida avtomobil va velosipeddan iborat 12 ta transport vositasini sanadi. Ularning jami g'ildiraklari soni 42 tani tashkil etdi. Jasur nechta avtomobil va nechta velosipedni sanagan?



10. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

- a) $9189 - (1405 - 798) + 2080$
- b) $9000 - (4099 + 2088 - 409)$

11. Gulistondagi maktablarning 4-sinflarida 3405 nafar o'g'il bola va 3567 nafar qiz bola, 3-sinflarida esa 4-sinflardagiga nisbatan 1179 nafar kam o'quvchi o'qiydi. 3-sinflarda necha nafar o'quvchi o'qiydi?

